



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



# **MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI**

*Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.*


## **TAHRIR HAY'ATI:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinnbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinnbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat yergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to’g’ri yo’lidir” .....	6
Qirg’zboyev Abdug’affor Karimjonovich	
Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari .....	8
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО .....	11
Хамдамова Махзуна Турсуновна	
Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....	15
Asiljonova Shohsanam Doniyorovna	
Yangi O’zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar .....	18
Babayeva D. R.	
Maktabgacha yoshdagи bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o’zaro ta’siri .....	21
Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....	25
Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna	
Неполные предложения как объект исследования .....	28
Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Дилноза Бекмуродовна	
Lider va uning fazilatlari xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida .....	32
Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi	
Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o’rni.....	36
Raximberanova Munojat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich	
Maktabgacha yoshdagи bolalarni ijodiy faoliyatga o’rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati .....	38
Kojaqeldiyeva Aziza Muxsum qizi	
Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari .....	41
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam	
Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....	46
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и	
их влияние на школьную успеваемость учеников.....	50
Ризаев Азизжон Рахимджанович	
Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari .....	54
Marasulova Dono Nigmatullayevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....	59
Matchanov B. O.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda hayot xavfsizligi ko’nikmalarini	
shakllantirishning psixologik xususiyatlari.....	63
Muratova Munavvar O’rol qizi	
Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....	67
Нажмиддинова Гулноза Одиловна	
Bo’lajak tarbiyachilarining mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....	70
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi	
Методика развития речи дошкольников .....	74
Очилова Хилола Шералиевна	
Okul öncesi dönemde bulunan çocukların için anne-babaların	
çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....	78
Elem Göktaş	
Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника.....	87
Равшанова Наргиза Норбоевна	
Отешова Гульнур Кабуловна	

Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....	91
Хайдаров Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi .....	95
Radjapova Zuxra Tirkashevna	
Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей .....	100
Садикова Шоиста, Тохирова Шохсанам	
Maktabgacha ta'limda yuksalish .....	104
Shirbacheyeva Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar .....	106
Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna	
Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher .....	109
Tokhirova Shokhsanam	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....	114
Xo'jamatova X. M.	
Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarning o'rni .....	119
Yakubova Zilola Zikirovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....	122
Mirkasimova Zilola Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash .....	124
Musratova Zilola Ulugbekovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning shaxslararo munosabati .....	128
Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdong Shohasan qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari .....	132
Teshabayeva Zamira Sobirovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati .....	135
Maxmudova Dilorom Axmadovna	
MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'naliishlari.....	137
Nabiiev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna	
Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....	140
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	
Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....	143
Khalilova Dilnoza Furkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	146
Jumanova Fatima Uralovna	
Talabalarning kasbiy kompetentliligin integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....	149
Kamalova Gavhar Akbarovna	
Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....	152
Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna	
Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....	156
Ne'matova G. A.	
Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari .....	160
Norboyeva Dilafruz Jumakulovna	
Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....	163
Yuldasheva Dilnoza	
Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....	166
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Raxmatova Saodat Amrakulovna	
Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhn'i idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari .....	172
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	



Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....	176
Тургунов Абдурашид Абдуманнобович	
Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....	182
Asrarhanova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi	
Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida .....	186
Jalilova Saboxat Xalilovna	
O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili .....	191
Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna	
Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli .....	196
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati.....	199
Qurbanboyev Azimbek Nazirboy o'g'i	
Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	202
Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna	
Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....	205
Nurmatov Nurhayot Nurziytot o'g'i	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning	
pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	209
Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna	
Социальнопедагогическая компетентность воспитателя ДОО.....	212
Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.	
Inklyuziv ta'limgarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....	215
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	



## XORIJY TILLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,  
Filologiya fanlari nomzodi,

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari, ularning inson faoliyatiga ijobiy ta'siri atroficha o'rganilib chiqilgan va hayotda uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali usullari taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** chet til, nemis tili, nutq, metod, ta'lism, psixologiya, rivojlantirish, fikrlash.

**Abstract:** This article comprehensively studied the psychological characteristics of foreign languages and their positive impact of human activity and effective ways to overcome life's difficulties.

**Key words:** foreign language, German language, speech, method, education, psychology, development, thinking.

**Аннотация:** В данной статье подробно изучены психологические особенности иностранных языков, их положительное влияние на деятельность человека, а также предложены эффективные методы преодоления трудностей, встречающихся в жизни.

**Ключевые слова:** иностранный язык, немецкий язык, речь, метод, образование, психология, развитие, думание.

### KIRISH

Xorijiy til – bu boshqa mamlakat tili hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida asosan ingliz, nemis, fransuz, ispan, arab, yapon, koreys, turk va boshqa tillar o'rgatilmoqda. Xorijiy tilni o'rgatishdan maqsad – “Bu uning umumiyl tuzilishiga oid bilimlarni etkazish”, – deydi Vilhelm Gumboldt. Ya'ni bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilar tomonidan bir necha xorijiy tilni egallash, ruhiyatni yaxshilash, tilga oid lingvistik bilimlar bilan birga, ularning dunyoqarashini kengaytiradi, turli xalqlarning madaniyati yutuqlarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi, shuningdek, dunyoni tadqiq etish va ta'lim oluvchilarni kamolotga eshirishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Talaba xorijiy tilni o'rganar ekan, uni o'z ona tilisi bilan qiyoslaydi, farqli va o'xshash taraflarini aniqlaydi. Shuningdek, o'zga madaniyatga xos stereotiplarni o'zida shakllantiradi, misol uchun nemislarning tartibliligi, inglzlarning ishbilarmonligi, tadbirkorligi, yaponlarning xushmuomalaligi, ixtirochilagini aytib o'tish lozim.

### MATERIALLAR VA USULLAR

Ko'pchilik xorijiy tillarni o'rganish ijobiy holat deb qarasa, boshqalar bu borada salbiy munosabat bildirishi shadi, masalan, yoshlarga bir nechta tillarni o'rgatish ularning tili va bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga putur yetkazishi mumkin, degan qarashlar ham mayjud. Tillarni o'rganishda ingliz psixiatri va yozuvchisi Nil Barton (Neel Burton) ko'proq ijobiy jihatlarini aniglagan. Uning fikriga ko'ra, “Xorijiy tilda axloqiy dilemma haqida o'ylaydigan insonlar ancha oqilona yoki utilitar xulosalarga kelishadi. Kimki ikki tilda so'zlasha olsa, uni yaxshi do'st sifatida sinab ko'rishingiz mumkin. Shuningdek, ingliz olimi xorijiy tilning nafaqat inson ruhiyatiga, balki uning sog'lig'iiga ijobiy ta'siri ham mayjudligini ta'kidlab o'tgan. Ya'ni, Kanadaning Toronto shahridagi kasalxonha ma'lumotlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ikki tillida so'zlashadigan insonlar o'zlariga o'xshash faqatgina ona tilida so'zlasha oladigan hamkasblariga qaraganda “demensiya”(aqlizaiflik) tashxisi o'rtacha 3–4 yil kechroq qo'yilgan. Shimoliy Italiyada Altsgeymeyr (sinel demensiya, yani yengil tipdagisi xotira, diqqat, tafakkur, idrok, nutq faoliyatining buzilishi) kasalligiga chalingan bemorlar bilan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ikki tilli odamlar o'rtacha besh yoshga kattaroq va ijro etuvchi funktsiyalarda ishtirok etadigan miya hududlari o'rtasida kuchliroq aloqaga ega. Hindistonda insultdan omon qolgan 600 kishini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ikki tilli bemorlar ancha yaxshi

natijalarga erishgan. Xususan, ikki tilli bemorlarning 40,5 foizi bir tilli bemorlarning 19,6 foiziga nisbatan normal kognitiv qobiliyatlarga ega ekanligi aniqlangan”.

Shuningdek, yurtimizda ham xorijiy tillarni bilishning ijobiy taraflaridan biri – bu qo’shimcha daromad olish, ya’ni iqtisodiy jihat bo’lib, til sertifikatlariga ega bo’lgan pedagoglarga 50 foiz ustama berilishi buning yaqqol isboti desak, xató bo’lmaydi.

Xorijiy tillarni o’rganish jarayonida turli xalqlarga xos quyidagi xususiyatlarni ham kuzatildi, nemis olimi H. Y. Heringer madaniyatlararo muloqotni o’rganishda turli xalqlarga xos bo’lgan xususiyatlar nemis satirigi Ekard Henshaydning quyidagi so’zlariga e’tiborni qaratgan: “Chex qo’pol, pragalik ozg’in, latishlar semiz, venger yetilmagan (biron bir narsani amalga oshirish yo’lida), mo’g’illar haddan tashqari ortgan (ko’zi va yuz tuzilishini yumaloqligi sababli), negr benuqson, xitoylik badjahl, yugoslav sira azamat/botir emas, bosniyalik darg’azab, eskimos doim xursand<sup>[3]</sup>. Albatta bular stereotiplar emas, balki satirk tarzda berilgan tasnif. Yoki bo’lmasa turli millatlarga xos xususiyatlar quyidagilarda kuzatishimiz mumkin, jannat bu: qaerda britaniyaliklar polisiyachi, fransuzlar oshpazlar, nemislar muxandislar, italyanlar oshiqlar, va buning hammasi shveysariyaliklar tomonidan tashkil etilgan. do’zax bu: qaerda britaniyaliklar shef, fransuzlar muxandislar, shveysariyaliklar oshiqlar, nemislar polisiyachi, buning hammasi italyanlar tomonidan tashkil etilgan. Albatta, talabalar mashg’ulotlar jarayonida turli madaniyatga xos xususiyatlari bilan tanishganda, ularda o’z xalqi (o’zbek, qozoq, tojik, qirg’iz, turkman va rus) qanday xususiyatga ega, degan savol tug’ilishi tabiiy. Hozirgi kunga kelib, fanlarning rivojlanishi natijasida xorijiy tillarni o’rganishda yangi yondashuvlar paydo bo’lmoqda. Umuman tillarning inson tafakkuriga ijobiy ta’siri va ularning o’ziga xos xususiyatlari olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilishiga sabab bo’lmoqda.

Biz ham mazkur maqolada xorijiy tillarning psixologik jihatlarini o’rganish va inson miyasida bu jarayonda nimalar sodir bo’lishiga batafsil to’xtalib o’tamiz. Tillarni o’rganish asosan to’rttal nutq faoliyat turi orqali amalga oshiriladi. Aslida nutq inson miyasi faoliyatini boshqaradigan psixologik jarayon hisoblanadi. Shu o’rinda J. Jalolovdan olingan quyidagi iqtibosga e’tiborimizni qaratamiz: “Nutqning tovush va harfiy jihatlari uning tashqi (moddiy) tomoni deyiladi. Ichki tomoni esa nutq harakat, eshitish, qo’rquv va qo’l harakat timsollarida ifodalanadi. Har ikkalasi nutqiy dinamik stereotipni tashkil etadi”<sup>1</sup>.

Aslida tilga ilmiy manbalarda shunday ta’rif berilgan: “Til – fikr, tuyg’u, xohish-istik quroli, insonlarning muhim muloqot vositasi bo’lgan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi hisoblanadi”, ya’ni til bizning atrofimizdagи dunyonи bilish demakdir.

Inson xorijiy tilni o’z ona tilisi bilan qiyoslab, ikkala tilning farqli va o’xhash jihatlarini aniqlash asosida o’rganadi, ya’ni xorijiy til orqali ta’lim oluvchi o’z ona tilini ham o’rganadi, takomillashtirib boradi va xorijiy tilga xos turli stereotiplarni o’zlashtiradi. Misol uchun, inglizlarning ishbilarmonligi, nemislarning tartibi, sifati va b. Demak, inson u yoki bu tilni o’rganishda biron-bir maqsadni ko’zlaydi, ya’ni ingliz tilini muloqot yoki bo’lmasa xorijiga borish uchun ma’lim bir maqsad ko’zlasa, nemis tilini tadqiqot o’tkazish uchun, fransuz tilini esa biron-bir taomni tayyorlash maqsadida, arab tilini esa Qur’oni Karimni o’qish va undan saboq olish maqsadida o’rganish mumkin.

Agarda tilni psixologik xususiyatlarga e’tiborimizni qaratadigan bo’lsak, u orqali inson miyasin faoliyati rivojlanadi, ya’ni idrok qilishni yaxshilaydi, o’rganish qobiliyatini va insonning kreativligini oshirishda asosiy omil bo’lib xizmat qiladi. Umuman, o’rganilayotgan to’rttal nutq faoliyati turi orqali muloqot qilish natijasida inson faoliyatida ijobiylik va ertangi kunga ishonch tuyg’usi paydo bo’ladi. Bu esa, o’z o’rnida hayot sifatini oshirishga va o’z oldida qo’yan maqsadga erishishda katta ahamiyatga ega.

Shu o’rinda mashhur nemis yozuvchisi Yohann Wolfgang Gyttening quyidagi iqtibosini keltirib o’tishni lozim deb topdik: “O’zga tilni bilmagan, o’z ona tilini ham bilmaydi”. Insonni xorijiy tillarga bo’lgan qiziqishlarini, zullisonayn, ya’ni ikki tilni mukammal bilishga bo’lgan intilishini oshirish hozirgi kunda davr talabi bo’lib qolmoqda. Ta’lim jarayonida shu narsa ma’lum bo’ldiki, ma’lum bir xorijiy tilni o’rganish, boshqa tillarni onson o’zlashtirishga olib keladi, ya’ni xorijiy tillarni o’rganishdagi keying urunish kam harakatni talab qiladi, masalan, nemis va ingliz tillarini bir oilaga mansubligi va grammatik tuzilishini o’xhashligini aytib o’tish maqsadga muvofiq.

Xalqimizda “Til bilgan el biladi”, “Til bilganga ming tanga”, “Til bilgan dunyo ko’radi” va boshqa hikmatli so’zlar mavjud. Albatta davr talabidan kelib chiqib, qaysi til bugungi kunda dolzarb va qaysi tilni o’rganish kerak degan savolga, ko’pchilik ingliz tilini tanlashi tabiiy va u jahonda muloqot vositasi bo’lib qolmoqda. Shu bilan birga xorijiy tilning o’rganishning o’ziga xos xususiyati bor, ya’ni har bir til insonga turlicha, ya’ni uning ruhiyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir qiladi.

Internet sahifalarida, “russian7.ru” saytida “Nima uchun arab tilida so’zlashuvchilarning miyasi, nemis tilida so’zlashuvchilarga qaraganda yaxshi rivojlangan?”<sup>[6]</sup> nomli maqolada quyidagi ma’lumotlar keltirib o’tilgan: “Olimlarning fikriga ko’ra, bir tilni mukammal bilishdan ko’ra, ikki va undan ortiq tilni yomon bilish, kognitiv qobiliyatni ancha yaxshilaydi. Ma’lum bo’lishicha, arab tilini bilish nemis tilini bilishdan ko’ra insonning neyromiya

tuzilishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu qanday sodir bo'lishi mumkin? Germaniyaning Laypsig shahridagi Maks Plank inson va miyaning kognitiv tadqiqotlari institutida (Max-Planck-Institut für Kognitions-und Neurowissenschaften/ Max Planck Institute for Human Cognitive and Brain Sciences) turli til egasi(sohibi) bo'lgan 93 ko'ngillilarning bosh miya faoliyati ustida tadqiqotlar olib borilgan. Magnit-rezonans tomografiyasi yordamida u yoki bu tilda fikrlash jarayonida miya tuzilishi bo'limgari orasida neyron bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Neyromiya tuzilishining magnit-rezonans tasvirlariga ko'ra, nemis tili sohiblariga qaraganda, arab tili sohiblarining chap va o'ng miya yarimsharlari orasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Nemis tili sohiblarida esa nutqda o'ng yarimsharga qaraganda, ko'proq chap yarimsharda bog'liqlik kuzatilgan. Aslida chap yarimshar – mantiqiy fikrlash, matematik hisob-kitob va pragmatizmga, o'ng yarimshar – fantaziya, intuisiya, vaziyatga turli taraflardan qarash, dunyoning to'liq manzarasini ko'rishga javob beradi. Bu esa o'z o'rnda nemis tilining sintaktik murakkabligi bilan bog'liq.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nemis tili ona tili bo'lgan insonlarda aqliy faoliyatda odatda o'ng yarimsharlari kamroq, chap yarimsharlari esa ko'proq jalb qilingan bo'ladi. Aynan chap yarimsharlari insonlarda mantiqiy fikrlash, matematik hisob-kitob va pragmatizm uchun javob beradi. Nemislar va boshqa yevropaliklar kabi shu xislatlari bilan mashhur. Nemis olimlarining tadqiqotlari natijalariga ko'ra, arab tili sohiblarida esa ko'proq o'ng miya ishlaydi va ikkala yarimsharlari orasida muntazam bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. O'ng yarimsharning faoliigi arab tilining murakkab fonetik jaranglashi va yozish jarayonida so'zlarda unli tovushlarning yo'qligi bilan izohlanadi. Maks Plank instituti psixonevrologlari tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ilgaridan arab til sohiblarida miya yaxshiroq rivojlangan deb taxmin qilishadi. Ikkila yarimsharlari tuzilishi doimiy faol holatiga ega va yevropa tillariga qaraganda ular o'rta-sidagi munosabat mustahkamroq. Til semantikasi tufayli o'ng yarimshar ustunlikka ega, go'zallik va ideallik uchun javobgar hisoblanadi. Shu bilan birga, arablarda chap yarimshar ham faol ishtirok etadi, chunki arab yozuvi o'ng tarafdan chap tarafga yoziladi, matematik hisob-kitoblar ham xuddi barcha savodli insonlar kabi shu tarzda amalga oshiriladi.

Shuningdek, xorijiy tillar miyaning eng murakkab bo'lgan ijro etuvchi funksiyalarni rivojlantirishi tadqiqotlar jarayonida o'z isbotini topgan. Misol uchun turli vazifalar o'rtasida almashinuv, rejaleshtirish, fikrlash, muammolarni hal qilish, ma'lumotlarni filtrlash va b. aytib o'tish mumkin. Shu sababli ikki tilda so'zlashuvchi inson tildan foydalanish jarayonida boshqa sohalarda afzallikkarga ega bo'ladi, ya'ni ko'proq ma'lumot olish imkoniyati paydo bo'ladi.

## XULOSA

Demak, xorijiy tillarni o'rganuvchilar muntazam ravishda turli millat va elat vakillarining tajribasini o'zlashtib borishi lozim. Ikki tillilikning afzallikkulari nafaqat tilshunoslik sohasida, balki psixologiya, psixiatriya va boshqa fanlarda o'zining ijobjiy ta'siri mavjudligini isbotlab kelmoqda. Shuningdek, ikkitillilik ona va o'zga til sohiblari o'rtasida madaniyatlararo muloqot shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'zga tillni egallash ta'lim oluvchilarni tayyorlashning muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, bo'lajak xorijiy til mutaxassislarning ruhiy holatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shunungdek, ikkitillilik muhim kognitiv va iqtisodiy samara berishi mumkin, lekin ko'pchilik hollarda xorijiy tilda so'zlashuvchilar asosan shaxsiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarga alohida e'tibor berishadi. Umuman inson psixologiyasini har tomonlama rivojanishida ham muhim ahamiyatga ega.

Inson xorijiy tilni o'zlashtirar ekan, o'zida yangi bir shaxsni shakllantiradi va o'zini o'sha millat vakili kabi tartiblili, ishbilarmon, tadbirdor, xushmuomalali, ixtirochi qiyofasida ko'ra boshlaydi. Bu esa, insonning ruhiyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bu yer yuzidagi har bir til inson bo'lishning o'ziga xos yo'li, yashashning o'ziga xos usuli. Albatta, bularning barchasi ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatida, ta'lim olishlarida samarali bo'lishiga turkti beradi desak, xato bo'lmaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий. – М.: Изд-во ИКАР, 2009. – С. 359.
2. Burton N. Beyond Words: The benefits of Being Bilingual. <https://www.psychologytoday.com/us/blog/hide-and-seek/201807/beyond-words-the-benefits-of-being-bilingual>.
3. Heringer H.J. Interkulturelle Kommunikation. Grundlage und Konzepte. 3., durchgesehene Auflage. Tübingen & Basel: A.Francke Verlag. 2010. – S. 203.
4. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – B. 26.
5. Roche J. Fremdsprachenerwerb. Fremdsprachendidaktik. 3., vollständig überarbeitete Auflage. – Tübingen und Basel: A. Francke Verlag. – S 222.
6. Pochemu u govoryashix po-arabski mozg razvit luchshe, chem u govoryashix po-nemeski. <https://russian7.ru/post/pochemu-u-govoryashhikh-po-arabski-mozg-raz/>



**Muharrir:** Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2023. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'lumi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**